

# JAMIYAT QOIDALARINI BUZGAN SHAXS JAZOGA TORTILDI



Quva tumani, Go'zal mahalla fuqarolar yig'ini yashovchi A.T muqaddam ma'muriy javobgarlikka tortilgan bo'lsada o'ziga tegishli xulosa qilmay takroran 2020 yil 31 dekabr kuni soat 2000larda mast holda Quva tumani, Go'zal mahalla fuqarolar yig'ini, Tinchlik ko'chasida joylashgan ko'p qavatli uylar oldiga kelib, hech bir sababsiz ushbu yerda bo'lgan mahalla ayollariga uyatli so'zlar bilan so'kib, baland ovozda baqir-chaqir qilgan, so'ng A.T voqeja joyiga kelgan tuman IIB xodimlarini huquqbazarlikni to'xtatish haqidagi talablariga bo'yusunmasdan, jamiyatda yurish-turish qoidalarini qasddan mensimay, fuqarolarni tinchligi va osoyishtaligini buzib, mayda bezorilik qilganlik holati yuzasidan unga nisbatan ma'muriy materiali to'plangan.

Jinoyat ishlari bo'yicha Quva tumani sudining qaroriga ko'ra A.T O'zbekiston Respublikasi MjtK 183-moddasi va 194-moddasi 1-qismida ko'rsatilgan huquqbazarliklarni sodir etgan deb topilib, O'zbekiston Respublikasi MjtK 34-moddasi tartibida uzil-kesil 7 sutka ma'muriy qamoq jazosi tayinlandi.

[Mayda bezorilik tushunchasi O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 183-moddasida](#) berilgan bo'lib, uning mazmuniga ko'ra, ushbu huquqbazarlik jamoat joylarida uyatli so'zlar aytish, behayo qiliqlar ko'rsatish, fuqarolarga nisbatan haqoratomuz shilqimlik qilish hamda jamoat tartibi va fuqarolar osoyishtaligini boshqacha tarzda buzish kabi jamiyatda yurish-turish qoidalarini mensimaslikda ifodalanadi.

Muqaddam ma'muriy javobgarlikka tortilgan bo'lishiga qaramay takroran huquqbazarlik sodir qilish jazo tayinlashda og'irlashtiruvchi holatlar deb topiladi.

**X.Abdullayev**

**Jinoyat ishlari bo'yicha Quva tumani sudining sudya yordamchisi**

[\*\*Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating\*\*](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Youtube](#)

2021-03-13 20:06:30